

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “TAOM” SEMANTIKASIGA EGA LEKSIK BIRLIKLAR PRAGMATIKASI

Mamajonov Shavkatillo Xabibullayevich
Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili o‘qitishning integrallashgan kursi kafedrası o‘qituvchisi

***Аннотация.** Maqola “taom” semantikasiga ega leksik birliklarning pragmatikasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu leksik birliklarning, ya‘ni so‘zlar va atamalarning, kontekstdagi ma‘nolari, ularning ishlatilishi va ijtimoiy aloqalardagi roli bilan bog‘liq tadqiqotdir. Bunda pragmatika leksik birliklarning faqatgina grammatik va semantik xususiyatlarini emas, balki ularning ijtimoiy, madaniy va kontekstual jihatlarini ham aniqlangan.*

***Калит сўзлар:** semantika, leksik birliklar, pragmatika, kontekstual jihatlar, polisemant so‘z.*

***Аннотация.** Статья посвящена изучению прагматики лексических единиц с семантикой «еда», которая представляет собой исследование, связанное со значением лексических единиц, то есть слов и терминов, в контексте, их употреблением, их ролью в социальные отношения. В этом случае прагматика определяет не только грамматические и семантические особенности лексических единиц, но и их социальные, культурные и контекстуальные аспекты.*

***Ключевые слова:** семантика, лексические единицы, прагматика, контекстуальные аспекты, многозначное слово.*

***Annotation.** The article is devoted to the study of the pragmatics of lexical units with the semantics “food”, which is a study related to the meaning of lexical units, that is, words and terms, in context, their use, and their role in social relations. In this case, pragmatics determines not only the grammatical and semantic features of lexical units, but also their social, cultural and contextual aspects.*

***Key words:** semantics, lexical units, pragmatics, contextual aspects, polysemantic word*

Umuman olganda leksik birliklar, xususan “taom” semantikali leksik birliklar paradigmatic ma‘nosi syntagmatic planda, ularni qurshab turgan so‘zlar bilan yuz beradigan aloqalari orqali yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tiliga xitoy tilidan o‘zlashgan “lag‘mon” leksemasi “cho‘ziq xamir”ni anglatadi. U xamirni cho‘zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyladigan ovqatdir. Lag‘mon leksemasi *qulog‘iga lag‘mon ilmoq* turg‘un birikmali tarkibidagi quloq somatizmi va ilmoq fe‘li bilan birikib pragmatik ma‘no kasb etadi. Ya‘ni “kimnidir yolg‘on-yashiriq gaplar, va‘dalar bilan laqillatmoq, avramoq” yoki “kimdadir noto‘g‘ri tasavvur tug‘dirmoq, chalg‘itmoq” ma‘nolarini kasb etadi. Qiyoslang: *U qulog‘imga lag‘mon ilib ketdi = U meni aldab ketdi.*

Ko‘rada pishirilgan go‘shni ma‘nosidagi fors tilidan o‘zlashgan kabob leksemasi go‘shni sixga tortib, ko‘raga terib, cho‘g‘ damida pishiriladigan, shuningdek tandirda yoki qozonda ham tayyorlanadigan taomni anglatadi. Lekin

kabob bo‘lmoq ko‘makchi fe’li bilan qo‘shilib, issiqdan “kuyib – yonmoq, qiynalmoq” ma’nosiga ega bo‘ladi. Shuningdek, kabob bo‘lmoq bag‘ri, yuragi, dili, jigari, ko‘ksi ot leksemalari bilan birikib “qattiq kuyunmoq, ruhiy azob tortmoq” ma’nolarini anglatib keladi: *Isitma ichida kabob bo‘lib, halloslab yotgan Qulmuhammad oshnasiga baqrayib qarab qoldi. Dili kabob bo‘lgan Polvon bu yigit voqeasini to‘laroq bilmoqchi edi.*

Kabob leksemasi six (kabob sixi, cho‘pi) ham bog‘lovchisi va kuymasin (bo‘lishsiz buyruq maylidagi fe’l) bilan birikkan holda “*Hech kimga, hech qaysi tomonga zarar bo‘lmasin, ish ikki tomon uchun beozor bitsin*” ma’nosini anglatib keladi. Masalan : – *Bilasizmi, nima? – rais ularni kelishtirmoqchi bo‘ldi, – keling, six ham kuymasin, kabob ham deganlaridek ikkalasiga besh baho qo‘ya qolamiz, maylimi?*

Tirikchilik uchun zarur oziq-ovqat ma’noli **osh-qatiq** leksemasi bo‘lmoq ko‘makchi fe’li bilan birikib “*biror shaxs bilan bordi-keldi qilmoq, yaqin munosabatda bo‘lmoq*” ma’nosini ifoda etadi: *Qulog‘ingizda bo‘lsinki, mana shu Turg‘unboyevning bir boshlig‘i bor, zinhor u bilan osh-qatiq bo‘la ko‘rmang.*

Osh leksemasi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, u umuman ovqat, palov, pishirilgan issiq ovqat ma’nolarini anglatadi. U buyruq maylidagi bo‘lsin fe’li bilan birikib, *yegan-ichganing totisin, singsin, yoqsin* kabi ma’nolarni ifoda etadi. Masalan: *Zarra birovning haqi o‘zgaga osh bo‘lmag‘ay, oxiri sharmandalik, kimki hazar qilmasa.* Osh leksemasi *qilmoq* fe’li bilan birikib, hazm qilmoq, singdirmoq yoki birovning molini, pulini o‘zlashtirib yubormoq ma’nosini anglatib keladi.

Og‘iz somatizmi, osh ot va oldirmoq fe’l leksemalari qovushuvi asosida shakllangan frazeologik birlik “*qo‘ldan chiqarmoq, boy bermoq*” ma’nolariga ega bo‘ladi. Ushbu leksema maqol tarkibida ham shu ma’noda kelishi mumkin : Aqlsiz og‘zidagini oldirar. *Yormat uni (Yo‘lchini) odamlar oldida bo‘sh-bayovlikda aybladi : – Bu nima, og‘izdagi oshni oldirish? – dedi.*

Ingliz pazandachiligida muhim o‘rin olgan taomlardan biri pie bo‘lib, u idish yoki tovaga xamir, go‘sht yoki mevalarni qavatlab joylashtirgan yoki xamir ichiga solingan, hamda tayyorlanadigan taomdir. Ushbu polisemant so‘zi easy va as leksemalari bilan birikkanda “*oson, mashaqqatsiz ravishda*” pragmatik ma’noga ega bo‘ladi. *We can get your million dollars, easy as pie.* Shuni ta’kidlash lozimki, Britaniya dialektlarida **mag** va **pie** (birikuvi **magpie**) “*makkor kishi*” ma’nosini yuzaga keltiradi. Shunisi qiziqki, qadimda *magpie* hozirda arxaik semantikaga aylangan “*laqma, mahmadona*” ma’noga ham ega bo‘lgan.

Ingliz tilining amerikanacha variantida **bread** va **water** taomlari **and** orqali birikib, “*qotgan non va suvga qolmoq*” ma’nosini kasb etadi. Uning tagzaminida “*nochor, kambag‘al, qashshoq*” pragmatik ma’nosi yotadi. Bundan tashqari, *bread and water* фраземаси “*Amerika qamoqxonalarda mahbuslarga beriladigan taom*” semasiga ham ega ekanligini kuzatdik: *Wilbar knew that if he got in trouble again it would be at least a year on bread and water.* O‘zbek madaniyatida nochor, qashshoq holatga tushgan odamlarga nisbatan “*kuning qattiq nonga qoldimi? yoki kuning non-choyga qoldimi*” birliklari qo‘llaniladi.

Amerika lingvomadaniyatida **cheese** (pishloq) ot leksemasi **someone** va **off** leksik birliklar bilan qovushgan holda (**to cheese someone off**) sleng maqomiga o'tgan va u "*kimnidir g'azabini qo'zg'atmoq*" pragmatik ma'noga ega bo'lgan. Masalan: *You sure knew how to cheese Laurel off. To be cheesed off, to get cheesed off, to get someone cheesed off* majhul nisbatda kelgan fe'l birikmalarda ham yuqoridagi ma'no kuzatiladi. *Clare was really cheesed off at the water.*

Taom semantikali **to chew** fe'li aslida "ovqatni og'zida tishlar yordamida chaynamoq" ma'nosini ifodalaydi. Lekin mazkur fe'l turli leksik tarkibli birikmalar tarkibida kelgan hollarda qator pragmatik ma'nolarni ifodalashi kuzatildi:

Chew on someone or something – *kimdir birovni, biror narsani tishlamoq*: **The dog was chewing on my shoe.**

Chew one's own tobacco – *o'z ishini qilmoq*: **I'm just sitting here chewing my own tobacco, not bettering any body.**

Chew one's end – *chuqquroq o'yga tolmoq*: **He's chewing his cud about what to do next.**

Chew someone out (eat someone out) – *kimnidir so'kmoq*: **The boss is always chewing out somebody.**

Chew something over – *biron narsani muhokama qilmoq (chaynamoq)*: **We can chew it over at lunch.**

Inglizlar taomnomasining tarkibiy va muhim qismini tashkillovchi **fish** (baliq) polisemant leksemasi muayyan kontekstlarda *dollar, qamoqxonadagi xonadosh va balldagi quchoqlashib tushiladigan raqs* kabilarni ifodalab keladi. **I got over a thousand fishes a piece in black pay; He arrived in sing prison as a new fish...**

Fish leksemasi o'zaro sinonim bo'lgan **other fish to try, bigger fish to try** frazeomalar tarkibida "boshqa muhimroq qiziqishlari, ishlari bo'lmoq" ma'nolarini yuzaga keltiradi. **I couldn't attend the meeting, I had bigger fish to try; Sue won't come, she has other fish to try.**

Fish (ot) va fe'lning sifatdash shakli bloodeddan tarkib topgan odatiy leksema sovuqqon kishilarga nisbatan qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. **Fish dance** (baliq raqsi) ulkan ko'l hududlarida hindular tomonidan oyoq va qo'llarini ishlatib o'ynaladigan raqsnı ifodalaydi. Shuningdek, **fish eater** (so'zma-so'z tarjimasi *baliq yeyuvchi*) oti baliq tanovul qilishda foydalaniladigan *pichoq, sanchiq* ma'nosini ifodalab kelayotganligini ilg'ab olish oson emasligini ta'kidlash lozim.

Ingliz xalqi lingvomadaniyatida **egg** (tuxum) yeguligining ham o'rni katta ekanligini uning ishtirokida yasalgan so'z, birikma va frazemalarning ko'pligi dalillaydi: *lightly boiled egg, hard – boiled egg, raw eggs, to whish eggs, to beat eggs, ham and eggs* va boshqalar. Tahlillar quyidagi hollarda egg metaforik tarzda qo'llanib, turli pragmatik ma'nolarni ifoda etishni ko'rsatdi. Masalan, *to egg someone on* fe'l frazemali "*kimnidir nomaqbul va aqlsiz ishlarni qilishda davom ettishga chorlamoq*" ma'nosini ifodalasa, (*The two boys kept throwing stones because the other children were egging them on*), *to have an egg on one's face* "noqulay holatda bo'lmoq" ma'nosini, *as full as an egg* "liq to'la, tiqilinch" ma'nosini ifodalab keladi.

Yana bir taom **porridge** bo‘lib, uning bosh ma‘nosi “*so‘lidan tayyorlangan bo‘tqa*”dir. Quyidagi birikmalarda metaforik sifatida qo‘llangan porridge turli pragmatik ma‘nolar ifodalovchisi vazifasini bajaradi: **to keep one’s breath to cool one’s porridge** – *jim turmoq, maslahat berishdan tiyilmoq*; **not to earn salt to one’s porridge** (so‘zma-so‘z tarjimasi *bo‘tqasiga ketadigan tuz uchun pul topmaslik, bo‘limsiz, epsiz bo‘lmoq*): *his is not able to earn salt for his porridge*.

O‘nlab semalarni o‘z tarkibiga jo qilgan **milk** ot leksemasi taomning to‘g‘ridan to‘g‘ri nominatsiyasi uchun xizmat qiladi. Masalan, *milker, milk and water, milk and wine, milk bar, milk brother, milken, milkily, milkness, milking, milkless* va boshqalar. Milk (sut) leksemasi quyidagi konstruksiyalar tarkibida xos ma‘nolarni ifoda etganligiga guvoh bo‘ldik: **the milk of human kindness** – *yon-atrofdagilarga ko‘rsatiladigan tabiiy xushmuomalalik, mehr*”; *Mary is completely hard and selfish – she doesn’t have the milk of human kindness in her*; **milk someone for something** – “*kimnidir axborot yoki pul berishga majburlamoq*”: *The thief milked me for \$ 20*; **milksop** “*sutga botirilgan non*”, “*latta, xotinchalish kishi*”.

Taomlar o‘zbek va ingliz lingvomadaniyati va konseptosferasining ajralmas va muhim tartibi sifatida ularning assotsiativ belgilarini ifodalash barobarida ular imkonlarning ularning o‘rab turgan olam va uning bo‘laklariga nisbatan bo‘lgan interpretatsiyasi, kerak bo‘lsa, subyektiv munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladilar. Bunday munosabatlar har ikki millatda umumiylik va milliy o‘ziga xoslik tomonlari bilan xarakterlanadi va ular tilda implitsit va eksplitsit tarzda obyektivlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Артюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике – М.: Прогресс, 1985 – Вып 16. Лингвистическая прагматика. – С. 21 – 38.
2. Мирмуҳсин. Чўри. Қисса. Тошкент.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1971. – 289 б.
3. Muhiddin A. To‘g‘ri tadbir. Nikoya. Toshkent.: Yangi nashir, 2019. - 175 b.
4. Муштум. Ўзбекистон кулгу ва хажв журанали. Тошкент.: 1985. – Б.12
5. Ойбек. Танланган асарлар. Тошкент.: Фан, 1975 – Б. 122.
6. Шарипов Ж. Хоразм. Роман. Тошкент: тошкент бадий адабиёт наўшириёти, 1965. – 77.
7. Хабибий. Девон Тошкент.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1971. – 168 б
8. О‘zbek xalq maqollari. – Тошкент: Sharq, 2016. – 577 b.
9. Webster’s third international dictionary of the English language. Kōnemann.: 1993. – 2654 p.
10. Richard A. Mc.Graw – Hills Dictinory of American Idioms. USA. New York.: 2005 – 783 p.